Iqtisodiy blokning beshta ko'rsatkichi quyidagilardan iborat:  $E_1$  - yalpi hududiy mahsulot (YaHM) joriy narxlarda mlrd so'm hisobida;  $E_2$  - sanoat mahsuloti hajmi, mlrd so'm;  $E_3$  - qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm;  $E_4$  - tashqi savdo aylanmasi, mln AQSh dollari;  $E_5$  - chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd so'm. Iqtisodiy blok uchun vazn koeffitsienti  $w_1 = 0.40$  belgilandi. Ushbu blok iqtisodiy faollikning kenglik va intensivligini bir vaqtda aks ettirishga mo'ljallangan.

YaHM ko'rsatkichi hududiy iqtisodiy quvvatni ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy o'lchov sifatida e'tirof etilgan [16]. Biroq u holat emas, faoliyat natijasini ko'rsatganligi bois tadqiqotda YaHM hajmi bilan birga uning tarkibiy o'zgarishlari ham alohida tahlil qilinadi. Tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichi viloyatning mintaqaviy va global iqtisodiy jarayonlarga qo'shilish darajasini anglatadi [20], chakana savdo esa ichki iste'mol talabining indikator sifatida hududiy aholi farovonligi bilan bog'liq [1].

### *Ijtimoiy blok ko'rsatkichlari (S)*

Ijtimoiy blok besh ko'rsatkichdan iborat:  $S_1$  - oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar soni, kishi;  $S_2$  - umumta'lim maktab o'quvchilari soni, kishi;  $S_3$  - maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni, birlik;  $S_4$  - faoliyat yuritayotgan tibbiyot vrachlar soni, ming kishi;  $S_5$  - shifoxona muassasalarining koykalar soni, birlik. Ijtimoiy blok uchun vazn koeffitsiyenti  $w_2 = 0.35$  belgilandi.

Ta'lim qamrovi ko'rsatkichlari Sen [5] tomonidan insonning imkoniyatlar to'plamini kengaytiruvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan. UNDP [3] insoniy rivojlanishning ta'lim tarkibiy qismini hisoblashda o'qish savodxonligi va ta'limda o'tkazilgan yillarni qo'llaydi - ushbu ikki mezon umumta'lim tizimi qamrovi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Tibbiyot ko'rsatkichlari esa aholining sog'lom hayot standartlarini ta'minlashdagi hududiy salohiyatni aks ettiradi va OECD "Better Life Index" [14] hamda UN-Habitat [17] ko'rsatkichlar tizimida alohida o'rin tutadi.

### *Infratuzilma bloki ko'rsatkichlari (F)*

Infratuzilma bloki quyidagi besh ko'rsatkichdan tashkil topgan:  $F_1$  - qurilish ishlari hajmi (YaHM tarkibida qurilishning ulushi, %),  $F_2$  - umumta'lim va oliy ta'lim muassasalari soni, birlik;  $F_3$  - shifoxonalar va ambulatoriya-poliklinikalar soni, birlik;  $F_4$  - mehmonxona va turistik tashkilotlar soni, birlik;  $F_5$  - texnikumlar va kasb-hunar maktablari soni, birlik. Infratuzilma bloki uchun vazn koeffitsiyenti  $w_3 = 0.25$  belgilandi.

Infratuzilmani alohida blok sifatida ajratish Eurostat [7] va OECD mintaqaviy ko'rsatkichlar tizimida keng qo'llaniladi. Jismoniy infratuzilma - binolar, yo'llar, tibbiy muassasalar - iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart bo'lib, u ijtimoiy xizmat ko'rsatishning ham moddiy-texnik asosini tashkil etadi. UN-Habitat [17] ta'kidlashicha, turizm infratuzilmasi - mehmonxonalar va turistik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar - ayniqsa tarixi boy Surxondaryo kabi viloyatlar uchun iqtisodiy diversifikatsiyaning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

#### *Normalizatsiya uslubi*

Ko'rsatkichlar turli o'lchov birliklarida (mlrd so'm, kishi, birlik, mln USD) ifodalanganligi sababli ularni bitta indeksda birlashtirish uchun normalizatsiya zarur. Min-Max normalizatsiya usuli qo'llanildi, bu usul OECD qo'llanmasida [2] standart uslub sifatida tavsiya etiladi va HDI uslubiyatida ham qo'llaniladi [12]. Formulasi: :

$$x_i^* = \frac{x_i - x_{\min}}{x_{\max} - x_{\min}}$$

Bu yerda  $x_i$  - ko'rsatkichning i-yildagi qiymati;  $x_{\min}$  va  $x_{\max}$  - ko'rib chiqilayotgan davr (2015-2024) mobaynida kuzatilgan minimal va maksimal qiymatlar. Natijada barcha ko'rsatkichlar [0; 1] oralig'iga keltiriladi, bu esa ularni bevosita taqqoslash va agregatsiyalash imkonini beradi. Saisana, Saltelli va Tarantola [10] ta'kidlaganidek, Min-Max usulining asosiy afzalligi - uni o'rnatish va tushuntirishning soddaligi hamda farqli ko'rsatkichlarning to'liq o'lchovlilik muammosini bartaraf etishi.

#### *Vazn berish va agregatsiya*

Uchta blok uchun ekspert asosida vazn koeffitsiyentlari belgilandi: iqtisodiy blok uchun  $w_1 = 0.40$ , ijtimoiy blok uchun  $w_2 = 0.35$ , infratuzilma bloki uchun  $w_3 = 0.25$ .

Iqtisodiy blokka nisbatan yuqoriroq vazn berilishining asosi - Surxondaryo viloyatida sanoat va savdo sohalarining yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini hisobga olish zarurati bilan izohlanadi [1, 16].

Ijtimoiy blok ikkinchi o'rinni egallaydi, chunki ta'lim va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari insoniy kapital sifatini bevosita aks ettiradi [3, 5].

Infratuzilma bloki esa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlovchi qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida qaralib, qolgan ikki blokka nisbatan uchinchi o'rinni egallaydi.

Melyn va Moesen [23] uslubiga ko'ra, vazn koeffitsiyentlari imkon qadar ob'ektiv baholash asosida belgilanishi lozim. Ushbu tadqiqotda koeffitsiyentlar O'zbekiston mintaqaviy rivojlanish sohasi mutaxassisleri guruhi ishtirokida hamda viloyatda

kuzatilgan iqtisodiy jarayonlarning tarixiy miqdoriy tahliliga tayangan holda aniqlangan.

Integral indeks quyidagi aggregatsiya formulasi orqali hisoblanadi:

$$I_{II} = w_1 \cdot \bar{E} + w_2 \cdot \bar{S} + w_3 \cdot \bar{F}$$
$$I_{II} = 0.40 \cdot \bar{E} + 0.35 \cdot \bar{S} + 0.25 \cdot \bar{F}$$

bu yerda  $\bar{E}$ ,  $\bar{S}$ ,  $\bar{F}$ - mos ravishda iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma bloklari bo'yicha normallashtirilgan ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlari hisoblanadi.

Bellashtirilmagan o'rta arifmetik aggregatsiya usuli Cherchye va boshqalar [19] tomonidan taklif etilgan yondashuvlar ichida muvozanatli (kompromiss) xususiyatga ega usul sifatida ajralib turadi.

Saltelli va boshqalar [18] tomonidan tavsiya etilgan sezuvchanlik tahlilini (sensitivity analysis) amalga oshirish maqsadida kelgusida turli vazn kombinatsiyalari asosida indeks barqarorligini tekshirish rejalashtirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### *Iqtisodiy blok: YaHM va tarkibiy siljishlar*

Surxondaryo viloyatining yalpi hududiy mahsuloti 2015-yildan 2024-yilgacha bo'lgan o'n yillik davrda joriy narxlarda 11 114.4 mlrd so'mdan 54 354.1 mlrd so'mga yetib, jami 4.9 barobar o'sdi [1]. Iqtisodiy blokning  $E_1$  ko'rsatkichi bo'yicha Min-Max normalizatsiyasida 2015-yilgi qiymat asos (past nuqta) va 2024-yilgi qiymat yetakchi nuqta bo'ldi. O'sish sur'atlari 2010-2011 yillardagi 110.9 foizlik cho'qqidan 2020-yilgi 102.7 foizga tushgan, lekin 2021-yilgi 109.3 foizlik tiklanishdan keyin barqaror 104-106 foiz koridorda saqlanmoqda.

YaHM tarkibiy o'zgarishlari viloyat iqtisodiyotining diversifikatsiya yo'lini yaqqol ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ulushi 2015-yildagi 49.4 foizdan 2024-yilda 39.1 foizga tushdi. Sanoat (qurilish bilan birgalikda) ulushi esa 12.3 foizdan 19.0 foizga ko'tarildi. Xizmatlar sektori 38.3 foizdan 41.9 foizga oshib, iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylandi [1]. Ushbu o'zgarish qishloq xo'jaligining mutlaq ahamiyati saqlanishi bilan birga, sanoatning nisbiy og'irligi ortayotganini ko'rsatadi.

Sanoat mahsuloti hajmi 2015-yilgi 727.1 mlrd so'mdan 2024-yilda 5 139.5 mlrd so'mga - ya'ni 7.1 barobar - o'sdi [1]. Qurilish ishlari hajmi ham 605.0 mlrd so'mdan 5 040.7 mlrd so'mga - 8.3 barobar - ko'paydi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy blokning  $E_2$  va  $E_3$  ko'rsatkichlari bo'yicha normallashtirilgan qiymatlarini yuqori darajaga ko'taradi va iqtisodiy blok integral qiymatini oshirishda muhim hissa qo'shadi. Qurilish sohasidagi bunday o'sish aholi turar-joyi, sanoat va ijtimoiy infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

Tashqi savdo aylanmasi ( $E_4$ ) 2015-yilgi 264.7 mln AQSH dollardan 2019-yilda 562.7 mln AQSH dollarga ko'tarildi, so'ngra 2020-yilgi pandemiya ta'sirida 416.9 mln AQSH dollarga tushdi va 2024-yilga kelib 416.1 mln AQSH dollarni tashkil etdi [1]. Eksport 213.8 mln AQSH dollardan 269.5 mln USD ga oshdi. Bu raqamlar viloyatning xalqaro savdo tizimiga qo'shilish darajasini ko'rsatsada, 2015-2024 yillardagi o'sish nisbatan kichik bo'lganligi sababli  $E_4$  ko'rsatkichining normallashtirilgan qiymati iqtisodiy blokning yuqori o'sish ko'rsatkichlariga nisbatan sekin o'zgargan. Chakana

savdo aylanmasi ( $E_5$ ) 1 843.6 mlrd soʻmdan 13 175.5 mlrd soʻmga - 7.1 barobar - koʻtarildi va ichki isteʼmol talabining sezilarli oʻsishini aks ettirdi.

*Ijtimoiy blok: taʼlim va sogʻliqni saqlash koʻrsatkichlari*

Ijtimoiy blokning eng koʻzga koʻrinadigan siljiishi oliy taʼlim qamrovining keskin kengayishida namoyon boʻldi. 2015-2016 oʻquv yilida Surxondaryo viloyatida birgina oliy taʼlim muassasasi faoliyat yuritgan boʻlsa [1], 2018/19 oʻquv yiliga kelib ularning soni 7 taga koʻtarilib, 2024-2025 yilda 7 ta boʻlib qoldi. Talabalar soni 6 955 kishidan 76 685 kishiga - taxminan 11 barobar - oʻsdi [1]. Professor-oʻqituvchi xodimlar soni ham 504 kishidan 1 995 kishiga koʻtarildi. Bu oʻzgarishlar  $S_1$  koʻrsatkichining normallashtirilgan qiymatini 2017-yilgacha past darajada saqlagan, lekin 2018-yildan boshlab tez va keskin ravishda oshgan.

Umumtaʼlim maktablari tarmogʻi ( $S_2$ ) ham kengaydi: maktablar soni 2015-2016 oʻquv yilida 861 tani tashkil qilgan boʻlsa [1], 2024-2025 yilda 995 taga yetdi. Oʻquvchilar soni 373 733 kishidan 559 937 kishiga koʻtarildi. Oʻqituvchilar soni 33 448 kishidan 50 335 kishiga oshdi. Bu koʻrsatkichlar demografik oʻsish bilan birga taʼlimga investitsiyalarning sezilarli oshganini ham koʻrsatadi. Maktabgacha taʼlim tizimi ( $S_3$ ) esa eng yuqori dinamikani namoyish etdi: muassasalar soni 2015-yilgi 293 tadan 2024-yilda 3 077 taga - 10.5 barobar - koʻpaydi, tarbiyalanuvchilar soni 26 912 kishidan 182 381 kishiga yetdi [1].


Tibbiyot tizimi koʻrsatkichlari ham ijobiy tendensiyani hosil qildi. Faoliyat yuritayotgan tibbiyot vrachlar soni ( $S_4$ ) 2015-yilgi 3.5 ming kishidan 2022-2023 yillarda 5.0 ming kishiga, 2024-yilda 4.8 ming kishiga koʻtarildi [1]. Shifoxona koykalar soni ( $S_5$ ) 7 482 dan 10 019 ga - yaʼni 34 foizga - oshdi. Shifoxonalar soni esa keskin tarzda 30 tadan 96 taga koʻpaydi. Ambulatoriya-poliklinikalar soni 390 tadan 443 taga yetdi. Oʻrta tibbiyot xodimlari soni 21.7 ming kishidan 21.4 ming kishiga oʻzgardi, yaʼni shu kategoriyada oʻsish nisbatan kam boʻldi. Ushbu koʻrsatkichlar ijtimoiy blok normallashtirilgan qiymatini 2020-2024 yillarda sezilarli tarzda koʻtardi.

*Infratuzilma bloki: qurilish, taʼlim va turistik tarmoq*

Infratuzilma blokning  $F_1$  koʻrsatkichi boʻlmish qurilish ishlari hajmi - 605.0 mlrd soʻmdan 5 040.7 mlrd soʻmga oʻsdi va YaHM tarkibida qurilishning ulushi 5.6 foizdan 9.4 foizga (2024-yilgi dastlabki maʼlumotga koʻra) yetdi [1]. Taʼlim muassasalari tarmogʻi ( $F_2$ ) miqdoriy jihatdan kengaydi: umumtaʼlim va oliy taʼlim muassasalari soni 862 tadan 1 002 taga oshdi. Kasbiy taʼlim tizimida 2020-2021 oʻquv yilidan boshlab texnikumlar faoliyat koʻrsata boshladi - 15 tadan 20 taga koʻtarildi; kasb-hunar maktablari soni ham 28 tadan 29 taga yetdi, lekin ulardagi oʻquvchilar soni 4 963 dan 16 660 kishiga - 3.4 barobar - oshdi [1].

Tibbiy infratuzilma ( $F_3$ ) soni 30 ta shifoxonadan 96 taga koʻpayishi infratuzilma blokining eng yorqin oʻsish omili boʻldi. Turizm infratuzilmasi ( $F_4$ ) ham kengaydi: mehmonxonalar soni 31 tadan 71 taga, turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar soni 3 tadan 14 taga koʻpaydi [1]. Biroq 2020-yili COVID-19 pandemiyasining taʼsiri aniq koʻrinadi: mehmonxonalar soni 37 dan 27 taga tushdi, turistik tashkilotlar soni ham 3 tadan 2 taga kamaydi. 2021-2023 yillarda esa soha tez tiklanib oʻsdi.

## Integral indeks tarkibiy modeli



**1-rasm. Surxondaryo viloyati iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish integral indeksining tarkibiy modeli<sup>1</sup>.**

1-rasm da ko'rsatilgan tarkibiy modelda integral indeksning uchta bloki aniq iyerarxik tuzilmada ko'rsatilgan. Har bir blok beshta ko'rsatkichni qamrab oladi va ular yig'ma qiymat tarzida integrallashadi. Modelda normalizatsiya formulasi va agregatsiya tenglamasi ham alohida ko'rsatilgan, bu esa metodologiyaning shaffofligini ta'minlaydi. Iqtisodiy blok (ko'k rang) - 40 foizlik vazn bilan - YaHM, sanoat, qurilish, tashqi savdo va chakana savdo ko'rsatkichlarini birlashtiradi. Ijtimoiy blok (yashil rang) - 35 foizlik vazn bilan - oliy ta'lim, umumta'lim, maktabgacha ta'lim, tibbiyot va shifoxona infratuzilmasini qamraydi. Infratuzilma bloki (to'q sariq rang) - 25 foizlik vazn bilan - qurilish, ta'lim va tibbiyot tarmog'i, turizm hamda kasbiy ta'lim muassasalarini birlashtiradi.

### 2015-2024 yillar dinamikasining kompleks tahlili

Mavjud statistik ma'lumotlar [1] asosida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, 2015-2018 yillarda iqtisodiy o'sish davom etgan bo'lsa-da, ijtimoiy blokda o'zgarishlar nisbatan sust kechdi - oliy ta'lim muassasalari soni o'zgarmadi, maktabgacha ta'lim muassasalari soni ham sekin ko'paydi. 2018-2019 yillarda oliy ta'lim muassasalari soni 1 tadan 7 taga keskin ko'tarildi, talabalar soni ikki barobar oshdi. Bu ijtimoiy blok normallashtirilgan qiymatining 2018-yildan keskin o'sishiga sabab bo'ldi.

<sup>1</sup> Mualliflar tomonidan OECD (2008) [2] va O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qomitasi ma'lumotlari (2024) [1] asosida ishlab chiqilgan.

2020-yilgi pandemiya iqtisodiy blokka ham, infratuzilma blokiga ham ta'sir ko'rsatdi: YaHM o'sish sur'ati 102.7 foizga tushdi, turizm infratuzilmasi yig'ildi, ammo ta'lim va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari saqlanib qoldi. 2021-yildan boshlab barcha uchala blok tezlashgan o'sish bosqichiga qadam qo'ydi: YaHM o'sish sur'ati 109.3 foizga ko'tarildi, maktabgacha ta'lim muassasalari soni 520 tadan 2 921 taga oshib, eng yuqori o'sish ko'rsatdi - bu yirik siyosiy qaror natijasida yuz berdi. Ushbu teskari siljish ijtimoiy blok va infratuzilma bloki integral qiymatlarining 2022-2023 yillarda keskin oshishiga olib keldi.

2023-2024 yillarda iqtisodiy blok barqaror o'sishni davom ettirdi: YaHM 46 999.2 mlrd so'mdan 54 354.1 mlrd so'mga ko'tarildi, sanoat 106.3 foiz o'sdi, qurilish ishlari barqaror darajada saqlanib qoldi. Infratuzilma bloki bo'yicha mehmonxonalar soni 66 tadan 71 taga, turistik tashkilotlar soni 18 tadan 14 taga o'zgardi - bu ba'zi tashkilotlarning birlashtirish yoki qayta ro'yxatdan o'tishi bilan izohlanishi mumkin. Integral indeks 2015-yildan 2024-yilgacha bo'lgan on yillik davr mobaynida barcha uch blok bo'yicha umumiy ijobiy yo'nalish kasb etdi.

**1-jadval.**

**Surxondaryo viloyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari  
dinamikasi (2015-2024 yillar)[1]**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2015-yil</b>	<b>2017-yil</b>	<b>2019-yil</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2023-yil</b>	<b>2024-yil</b>
YaHM hajmi, mlrd so'm	11 114	16 354	25 473	33 591	46 999	54 354
YaHM o'sish sur'ati, foizda	107.3	103.4	104.5	109.3	105.1	105.9
Sanoat mahsuloti, mlrd so'm	727	1 065	1 711	2 534	3 730	5 140
Qurilish ishlari, mlrd so'm	605	1 360	2 676	3 639	4 558	5 041
Tashqi savdo aylanmasi, mln AQSH dollar	264.7	374.6	562.7	442.5	327.9	416.1
Oliy ta'lim muassasalari, dona	1	1	7	7	8	7
Talabalar soni, ming kishi	6.96	9.28	20.13	39.91	67.41	76.69
Umumta'lim maktablari, dona	861	855	920	938	987	995
MTT soni, dona	293	286	412	520	2 921	3 077
Faoliyat yurituvchi shifokorlar, ming kishi	3.5	3.9	4.1	4.3	5.0	4.8
Shifoxona koykalar soni, birlik	7 482	8 358	8 490	8 791	9 907	10 019
Mehmonxonalar soni, birlik	31	38	42	27	66	71

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy parametrlarini qamrab olgan. Jadvaldan ko'rinadiki, YaHM 2015-2024 yillar davomida joriy narxlarda 4.9 barobar oshdi, sanoat mahsuloti 7.1 barobar, qurilish ishlari 8.3 barobar ko'paydi [1]. Ta'lim tizimida eng ko'zga ko'rinadigan o'zgarish oliy ta'limdagi talabalar sonining 11 barobardan ortiq o'sishi bo'ldi. Sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari ham sezilarli o'sishni ko'rsatdi: shifoxona koykalar soni 34 foizga, faoliyat yurituvchi shifokorlar soni 37 foizga ko'tarildi.

#### *Integral indeks dinamikasining nazariy izohi*

Integral indeks qiymatlarini hisoblaydigan bo'lsak, iqtisodiy blokning (E) normallashtirilgan qiymati 2015-yilda eng past nuqtada bo'lib (asos = 0), 2024-yilda eng yuqori qiymatga (1.0 ga yaqin) keladi. Ijtimoiy blok (S) uchun esa 2018-yilgacha past qiymatlar kuzatiladi, so'ngra 2019-yildan boshlab keskin o'sish boshlanadi - bu asosan oliy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tarmoqlarining kengayishi bilan bog'liq. Infratuzilma bloki (F) 2020-yilda biroz pasaygan bo'lsa-da, keyingi yillarda qayta tiklandi.

OECD qo'llanmasi [2] va Saisana, Saltelli, Tarantola [10] ta'kidlaganidek, integral indeks ning qiymati belgilangan davr va ko'rsatkichlar to'plamiga nisbiy ekanligini yodda tutish kerak. Shu sababdan ushbu tadqiqotda integral indeks bir vaqtning o'zida ikki maqsadga xizmat qiladi: (1) Surxondaryo viloyatining ichki dinamikasini o'lchash, ya'ni bir yildagi holatni boshqa yil bilan taqqoslash; (2) kelajakda boshqa viloyatlar bilan qiyosiy tahlil o'tkazishga uslubiy zamin tayyorlash. Ikkinchi maqsad uchun ko'rsatkichlarning davr chegarasini va normalizatsiya uchun qo'llaniladigan etalonlarni kengaytirish zarur bo'ladi.

Geografik tafovutlar ham integral indeks tahlilining muhim qirrasini hisoblanadi. Jadvaldan ko'rinadiki, viloyat markaziy tumanlarida (Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on) turli ko'rsatkichlar bo'yicha mutlaq qiymatlar Termiz shahri va chekka tumanlarga nisbatan yuqori. Masalan, Denov tumanidagi umumta'lim maktablarida 80 235 nafar o'quvchi o'qisa [1], Qiziriq tumanida 23 673 kishi o'qiydi. Ushbu geografik farqlanish hududiy rivojlanish siyosatini shakllantirishda tuman darajasidagi differensial yondashuv zarur.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Ushbu tadqiqot Surxondaryo viloyatining 2015-2024 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash uchun uch blokli integral indeks metodologiyasini ishlab chiqdi va uni rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazdi. Olib borilgan tahlillar hudud rivojlanishining ijobiy dinamikasini aniqlashga imkon berdi.

Birinchi xulosa - iqtisodiy rivojlanish barqaror va izchil o'sish yo'lidan bormoqda. YaHM o'sish sur'ati 2015-2024 yillar davomida muntazam ijobiy bo'lib, 2021-yilda 109.3 foizlik yuqori natijaga erishildi. Sanoat va qurilish sohalari ushbu o'sishning asosiy drayverlari sifatida shakllandi.

Ikkinchi xulosa - ijtimoiy sohada sezilarli va tezkor ijobiy siljishlar kuzatildi. Ayniqsa ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida oliy ta'lim muassasalari soni keskin oshdi, talabalar soni esa bir necha barobarga ko'paydi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi kengayish hududning insoniy kapitalini mustahkamlashga xizmat qildi.

Uchinchi xulosa - infratuzilma rivojlanishi ham umumiy ijobiy yo‘nalishda davom etmoqda. Qurilish va sog‘liqni saqlash sohalarida sezilarli kengayish kuzatilgan. Turizm sohasida vaqtinchalik pasayishlar bo‘lgan bo‘lsa-da, mavjud salohiyat uni tezkor tiklash va rivojlantirish imkonini beradi.

To‘rtinchi xulosa metodologik jihatdan muhimdir. Min-Max normalizatsiya va chiziqli vaznli agregatsiya asosida tuzilgan integral indeks hududiy rivojlanishni kompleks va shaffof baholash imkonini berdi. Ushbu yondashuv amaliy qo‘llash uchun qulay va samarali hisoblanadi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib quyidagi ijobiy yo‘nalishdagi tavsiyalar taklif etiladi:

Birinchidan, iqtisodiy o‘shishni yanada jadallashtirish uchun sanoat va eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan investitsiya muhitini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, ta‘lim sohasidagi yuqori o‘shish sur‘atlarini sifat jihatdan mustahkamlash, zamonaviy infratuzilma va raqamli texnologiyalar bilan qo‘llab-quvvatlash zarur. Bu “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi bilan hamohang ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchidan, tibbiy xizmatlarning hududlar bo‘yicha teng rivojlanishini ta‘minlash orqali aholining ijtimoiy farovonligini yanada oshirish imkoniyati mavjud. Chekka hududlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar bu jarayonni tezlashtiradi.

To‘rtinchidan, turizm sohasini rivojlantirish orqali viloyatning tarixiy va madaniy salohiyatini iqtisodiy o‘shish omiliga aylantirish mumkin. Termiz shahri bu borada muhim markaz bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kelgusida tadqiqotni kengaytirish quyidagi yo‘nalishlarda katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi:

birinchidan, ushbu metodologiyani boshqa viloyatlar kesimida qo‘llash;

ikkinchidan, turli vazn kombinatsiyalari asosida sezuvchanlik tahlilini o‘tkazish [18];

uchinchidan, tuman darajasida yanada chuqur differensial baholashni amalga

Surxondaryo viloyati 2015-2024 yillar davomida barqaror va ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish trayektoriyasini namoyon etdi. Integral indeks metodologiyasi ushbu jarayonni kompleks baholash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli analitik asos bo‘lib xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Surxondaryo viloyati ta‘lim, sog‘liqni saqlash va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari rasmiy statistik ma‘lumotlari. 2024. URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/regionalstatistics>

2. Nardo M., Saisana M., Saltelli A., Tarantola S. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. OECD Publishing, 2008. URL: <https://www.oecd.org/sdd/42495745.pdf>

3. UNDP. Human Development Report 2023/2024. United Nations Development Programme, 2024. URL: <https://hdr.undp.org/content/human-development-report-2023-24>

4. Stiglitz J.E., Sen A., Fitoussi J.P. Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress. 2009. URL: <https://ec.europa.eu/eurostat/documents/8131721/8131772/Stiglitz-Sen-Fitoussi-Commission-report.pdf>
5. Sen A. Development as Freedom. Oxford University Press, 1999. URL: <https://archive.org/details/developmentasfre00sena>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni "O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarda rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida". URL: <https://lex.uz/docs/5841077>
7. Eurostat. Regional Statistics - Methodology and Key Indicators. 2023. URL: <https://ec.europa.eu/eurostat/web/regions/methodology>
8. Booyesen F. An Overview and Evaluation of Composite Indices of Development. Social Indicators Research. 2002. Vol. 59(2). Pp. 115-151. URL: <https://doi.org/10.1023/A:1016275505152>
9. Freudenberg M. Composite Indicators of Country Performance: A Critical Assessment. OECD Science, Technology and Industry Working Papers. 2003. URL: <https://doi.org/10.1787/405566708255>
10. Saisana M., Saltelli A., Tarantola S. Uncertainty and Sensitivity Analysis Techniques as Tools for the Quality Assessment of Composite Indicators. Journal of the Royal Statistical Society. 2005. Vol. 168(2). Pp. 307-323. URL: <https://doi.org/10.1111/j.1467-985X.2005.00350.x>
11. Ravallion M. Troubling Tradeoffs in the Human Development Index. Journal of Development Economics. 2012. Vol. 99(2). Pp. 201-209. URL: <https://doi.org/10.1016/j.jdeveco.2011.01.003>
12. Anand S., Sen A.K. Human Development Index: Methodology and Measurement. UNDP Occasional Paper 12. 1994. URL: <https://hdr.undp.org/content/human-development-index-methodology-and-measurement>
13. Despotis D.K. A Reassessment of the Human Development Index via Data Envelopment Analysis. Journal of the Operational Research Society. 2005. Vol. 56(8). Pp. 969-980. URL: <https://doi.org/10.1057/palgrave.jors.2601927>
14. OECD. How’s Life? Measuring Well-being. OECD Publishing, 2017. URL: [https://doi.org/10.1787/how\\_life-2017-en](https://doi.org/10.1787/how_life-2017-en)
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasi to‘g‘risida. URL: <https://lex.uz/docs/5031048>
16. World Bank. Uzbekistan Country Economic Update. 2024. URL: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/uzbekistan-country-economic-update>
17. UN-Habitat. SDG 11 Monitoring Framework: Making Cities and Human Settlements Inclusive, Safe, Resilient and Sustainable. 2023. URL: <https://unhabitat.org/sdg-11>

18. Saltelli A., Tarantola S., Campolongo F., Ratto M. Sensitivity Analysis in Practice: A Guide to Assessing Scientific Models. Wiley, 2004. URL: <https://doi.org/10.1002/0470870958>
19. Cherchye L., Moesen W., Rogge N., Van Puyenbroeck T. An Introduction to Benefit of the Doubt Composite Indicators. Social Indicators Research. 2007. Vol. 82(1). Pp. 111-145. URL: <https://doi.org/10.1007/s11205-006-9029-7>
20. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. Hududlarda investitsiya muhiti va tashqi savdo ko‘rsatkichlari. 2023. URL: <https://mift.uz/uz/news>
21. Zhou P., Ang B.W., Poh K.L. A Survey of Data Envelopment Analysis in Energy and Environmental Studies. European Journal of Operational Research. 2008. Vol. 189(1). Pp. 1-18. URL: <https://doi.org/10.1016/j.ejor.2007.04.042>
22. Surxondaryo viloyati hokimligi. Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ma’lumotlari. URL: <https://surxondaryo.uz/category/iqtisodiyot>
23. Melyn W., Moesen W. Towards a Synthetic Indicator of Macroeconomic Performance: Unequal Weighting when Limited Information is Available. Public Economics Research Paper 17. KU Leuven, 1991. URL: <https://lirias.kuleuven.be/retrieve/192477>
24. Giovannini E., Nardo M., Saisana M., Saltelli A., Tarantola S. Composite Indicators of Country Performance: A Comprehensive Overview. OECD Publishing, 2008. URL: <https://doi.org/10.1787/533411815016>
25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 fevraldagi PF-5661-sonli Farmoni "Surxondaryo viloyatini 2019-2021 yillarda jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida". URL: <https://lex.uz/docs/4193231>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

<b>Muharrir:</b>	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
<b>Ingliz tili muharriri:</b>	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
<b>Rus tili muharriri:</b>	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
<b>Musahhih:</b>	Karimova Shirin Zoxid qizi
<b>Sahifalovchi va dizaynerlar:</b>	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, dekabr, 12-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**